

“Nilufar guli” metodi

“Nilufar guli” chizmasi - muammoni yechish vositasi. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta katta to‘rt burchaklar tashkil etadi.

Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faallashtiradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari.

- 1. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.** Alohida, kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to‘rt burchak markazida (A katak) avval asosiy muammoni (g‘oya, vazifa) yozadilar. Uning yechish g‘oyalari esa markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchak(B, C, D, F, G, Y, Z, H katak)larga yozadilar. Markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarga yozilgan g‘oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya’ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning har biri o‘z navbatida yana bir muammodek ko‘riladi

- 2. Ish natijalarining taqdimoti.**

“Nilufar guli” chizmasi

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

“Nilufar guli” chizmasini tuzish qoidalari

- ✓ Amaliy nuqtai nazardan barcha g‘oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.
- ✓ Sizga katta qog‘oz varag‘i zarur bo‘ladi. Doimo o‘zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog‘ozda ko‘rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

Namuna:

Gidroponika usulidan foydalanish	O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi monitoringini olib borish	Tuproq mikroflorasini yaxshilash			
O‘simliklar vegetatsiyasini nazoratga olish	Agrotexnik tadbirlarni samarali amalga oshirish	Sug‘orishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish			
O‘g‘itlash ishlarini olib borish	O‘simlik qator oralariga o‘z vaqtida ishlov berish	Yetakchi mutaxassislarni jalb etish va tayyorlash			
Tuproq mikroflorasiga mos o‘simlik navlarini tanlash	Serhosil navlarni ekish	Yangi navlar yetishtirishni yo‘lga qoyish	Agrotexnik tadbirlarni samarali amalga oshirish	Sohaga innovatsion texnologiyalarni jalb etish	O‘simlik kasalliklariga qarshi kurashish
Seleksiya bo‘yicha mutaxassislarni jalb etish	Seleksiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etish	Seleksiya ishlarini doimiy nazoratini olib borish	Seleksiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etish	O‘simliklar hosildorligini oshirish	Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish
Seleksiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash	Urug‘lik va ko‘chatchilikni yo‘lga qo‘yish	Tajriba maydonlarini tshkil etish	Sohaga tajribali mutaxassislarni jalb etish	Ekologik omillarni ta‘sirini o‘rganish	Xo‘jalikni boshqaruv tizimini to‘g‘ri tashkil etish